



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Qorayev Samaridin Barakayevich<sup>1</sup>**  
**Allayorova Sarvinoz Baxtiyorovna<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti

<sup>2</sup> Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti. [allayorovasarvinoz78@gmail.com](mailto:allayorovasarvinoz78@gmail.com)

## XALQARO DASTUR TALABALARI ASOSIDA INNOVATSION TA'LIM MUHITINI YARATISH

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro baholash dastur talablari, maktablarda amalga oshirilayotgan ishlar tahlili hamda rivojlangan davlatlarning dastur talablariga muvofiq tavsiyalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS xorijiy tajribalar, ta'lim sifatini baholash milliy markazi, kasbiy kompetentlik, o'qish savodxonligi, tushunish darajasi.

### СОЗДАНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ СРЕДЫ ОБУЧЕНИЯ НА БАЗЕ СТУДЕНТОВ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются требования программы международной оценки, анализ работы, проводимой в школах, а также рекомендации развитых стран в соответствии с требованиями программы.



**Ключевые слова:** Международные оценочные программы, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS зарубежный опыт, Национальный центр оценки качества образования, профессиональная компетентность, грамотность чтения, уровень понимания.

## CREATING AN INNOVATIVE LEARNING ENVIRONMENT BASED ON INTERNATIONAL PROGRAM STUDENTS

**Annotation:** This article focuses on International Assessment Program Requirements, analysis of work carried out in schools and recommendations of developed countries in accordance with the program requirements.

**Key settings:** International assessment programs, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS foreign experiences, National Center for quality assessment of training, professional competence, reading literacy, level of understanding.

**Kirish (Introduction).** Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga

yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin. Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta'lim jarayonlari va natijalarini ko'rib chiqib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi.

1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab mavzular bo'yicha o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o'tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib



boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o‘tkaziladigan tadqiqotda o‘quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o‘rinlidir. Raqamli formatga o‘tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o‘qishni kompyuterda baholash kabi o‘zgarishlar ham ko‘zda tutilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» ishlab chiqildi, unga ko‘ra, masalan; o‘quvchilar mustaqil ta‘lim olishlari uchun elektron shakldagi ta‘limni rivojlantirish, unda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borishda o‘quvlar tashkil etish kabilar belgilangan. PISA testlarida ishtirok etayotgan davlatlar soni tobora ortib bormoqda. Bunda o‘quvchilarning bilim sifati monitoring 5 ta yo‘nalish bo‘yicha aniqlanadi. O‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompyuter savodxonligi va moliyaviy savodxonlik yo‘nalishlarida o‘quvchilarning bilim sifati aniqlanadi. O‘zbekiston 2021-yilda 3 ta (o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik) yo‘nalish bo‘yicha ishtiroki etishi ko‘zda tutilmoqda.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta‘lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Milliy ta‘lim tizimini isloh qilish, ta‘lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo‘llaniladi. Xalqaro tadqiqotlar ta‘lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. Milliy ta‘lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga mo‘ljallangan.

Mazkur xalqaro dastur boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'qilgan matnni tushunishi, uni sharhlashi, mustaqil hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishi orqali ta'limning keyingi bosqichida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga zamin tayyorlaydi.

TIMSS – The Trends in International Mathematics and Science Study Matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi. Bu tadqiqot o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich maktabning 4 sinfi va tayanch maktabning 8 sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o'rganishni maqsad qilib qo'ygan va olingan natijalarga muvofiq har bir mamlakatning ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini e'tirof etadi.

TALIS –Teaching and Learning International Survey – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo'lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta'sis etilgan.

PISA- Programme for International Student Assesment turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Mazkur xalqaro baholash dasturlari Respublikamiz ta'lim tizimini mazmunan yangilash, innovatsion ta'lim muhitini yaratish, ta'lim sifatini orttirishni talab etadi va quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Xalqaro baholash dasturlari PIRLS TIMSS va PISA talablari asosida o'qish, o'zbek tili va adabiyoti, matematika va tabiiy o'quv fanlari bo'yicha o'quv va nostandart adaptiv topshiriqlarini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil ish daftarlarini bosma shaklda va modulli o'qitish tizimiga asoslangan elektron variantini tayyorlash axborot texnologiyalari vositasida baholash mexanizmini ishlab chiqish Xalqaro baholash tizimi TALIS (Teaching and Learning International Survey) talablari

asosida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini aniqlash uchun kvalimetrik diagnostika anketa so'rovnomasini tayyorlash va onlain tizimi vositasida aniqlash Pedagog kadrlar tomonidan o'zining kasbiy kompetentligini mustaqil nazorat qilish va o'z-o'zini baholash imkonini beradigan kvalimetrik diagnostika topshiriqlaridan iborat metodik va elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

3. Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi saytlari.

E-mail: [markaz@tdi.uz](mailto:markaz@tdi.uz) Veb-sayt: <http://www.markaz.tdi.uz/> Telegram: <https://t.me/milliymarkaz>.

4. M.F.Qurbonova, S.B. Qorayev, Uzluksiz ta'limda o'quvchilarning o'quv-bilish kompetentsiyasini shakllantirish yo'llari //Uzluksiz ta'lim, 2020. Maxsus son 57-62 b.

5. Qurbonova Maftuna, Samaridin Korayev, Problems and ways to improve student learning competencies in primary education // Academic research in educational sciences, Tashkent, 2020. Volume 1, ISSUE 4, pp 795-801.

6. Qurbonova Maftuna, Formation of learning and educational competences of students in primary classes // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal, 2020 (June). Volume: 6, pp 266-269.